

O'ZBEKISTON-MENING YURAGIM

(shoira Kavсар Turdiyeva ijodiga chizgilar)

SODIQOVA GULMIRA TO'XTANAZAROVNA

TTA Akademik litsey o'qituvchishi

Annotatsiya

Ushbu maqolada taniqli shoira va mohir pedagog Turdiyeva Kavсар Sheraliyevna ijodi bo'yicha hozirgacha yoritilmagan jihatlari, shoiraning o'zbek bolalar adabiyotida tutgan o'rni va o'ziga xos uslubi haqida so'z boradi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются о неизвестных доселе аспектах творчества известной поэтессы и искусного педагога Турдиевой Кавсар Шералиевны, роли поэтессы в узбекской детской литературе, ее неповторимом стиле.

Annotation

This article discusses unknown aspects of the work of the famous poetess and skilled teacher Turdieva Kavсар Sheraliyevna, the role of the poetess in Uzbek children's literature and her unique style.

Kalit so'zlar: shoira, she'rlar, bolalar adabiyoti, bolalar she'riyati, Vatan, Vatanga bo'lgan muhabbat, she'riy tarbiya.

Kirish

Taniqli shoira va mohir pedagog Turdiyeva Kavсар Sheraliyevna ijodi va bosib o'tgan yo'llari haqida internet olamidan biror nima qidirsangiz, mutaxassis, ilmiy izlanuchi yoki boringki oddiy havasmand muhlis sifatida ishoning yetarlicha ma'lumot topa olmaysiz. Mana shulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz: Turdiyeva Kavсар Sheraliyevna 1958- yil 6-avgustda Toshkent shahrida ziyoli oilada tug'ilgan. 1975-yili Chilonzor tumanidagi 201-o'rta maktabni oltin medal bilan tugatib, Toshkent davlat universitetiga o'qishga kirgan, so'ng Sankt-Peterburg davlat universitetini o'qib tugatgan. Hozir Toshkent pediatriya tibbiyot institutida kafedra mudiri lavozimida ishlab kelmoqda. Shoiraning „Varrak“, „O'ynayapman, o'ylayapman“, „Qush bo'lib uchgan ona“, „Raqamlar bo'ylab sayohat“



kabi to'plamlari bolalar qalbining beg'ubor kengliklarini ochib berishga, ularning nozik ruhiy qalb jarayonlarini ko'rsatishga qaratilgandir. Filologiya fanlari nomzodi Turdiyeva Kavsar Sheraliyevna kino san'ati sohasida ham samarali ijod qilmoqda. Uning „Zumrasha“ hajviy kinojurnali uchun tayyorlagan „Ma'naviyatli bo'laylik“, „Sumalak va tilak“, „Yodlasam bo'lmasmidi?“ kabi asarlari yuqori baholangan. Kavsar Turdiyevaning multfilmlar, telefilmlar uchun yozgan qo'shiqlari ham ommalashib ketgan. Uning „Raqamlar bo'ylab sayohat“ (2001), „Ona isi“, „Obod mahallam ko'chalari“, „Hayvonot bog'i“, „Salomat bo'ling“ (2003), „Botu nidosi“, „Obod mahallam bo'ylab“, „Toshkesarlar mamlakati“ (2004), R.Farhodiy to'plami tarjimalari (2005), „O'n yumush“, „Tozalik — go'zallik“ kabi kitoblari chop etilgan [1].

Empirik tahlil

Aslida shoiraning ijod mahsullarini o'rganar ekansiz, har bir satr ortidan mashaqqatli mehnat, uyqusiz bedor tunlar, ijodga moyillik va eng avvalo yaratgan tomonidan yuqtirilgan buyuk iste'dod yotadi. Turdiyeva Kavsar Sheraliyevna yurtimizda bolalar shoirasi sifatida yaxshi tanilgan bo'lsada, uning ijodi bilan tanishgan har bir o'quvchi, o'ylaymizki shoirani o'zi uchun qaytadan kashf qiladi. Fikrimizcha, ijod namunalari yetti yoshdan yetmish yoshgacha mo'ljallangan keng qamrovli auditoriyani o'ziga jalb eta oladi. Shoira, har qanday so'z san'atkori singari, ma'lum bir "axloq qoidalari" ga bo'ysunmaydi. U butunlay boshqacha bo'lishi mumkin, barchasi uning shaxsiyati, uslubi, idrok dunyosi va sharoitlariga bog'liq. Shoirada muhim fazilatlardan sanalmish iste'dod, chuqur his-tuyg'ularini va tajribalarini dunyoga ochishga tayyor jasorat, nozik kuzatuvchilik qobiliyati, mujassam. Buni isboti sifatida hayoti davomida dunyo yuzini ko'rgan o'ziga xos va go'zal she'rlar yarata olgani, hamma narsani o'ziga xos rakursdan ko'ra olishi buni isbotidir. U ko'p odamlar sog'inadigan tafsilotlarni ko'ra bila olgan va ularni she'rlarida tasvirlagan. Zero, o'z his-tuyg'ularini so'z orqali ishonchli tarzda yetkazib bera olgan shoir yoki shoira o'quvchilarning qalbiga tez yetib boradi. Shoirada esa ijodini rag'batlantiradigan, o'ylantiradigan g'oya va fikrlar bisyor...

Ma'lumki, ijodkorlar uchun she'r yaratish vaqt, sabr va doimiy tahrirni talab qiladigan jarayon. Shoira tilda musiqa yarata olishi uchun so'zlarga, ularning tovushiga, maromiga



sezgir va hayotning turli sohalaridan ilhom olish uchun izlanuvchan bo'lishi kerak. Yana bir muhim jihat shundan iboratki, u o'z his-tuyg'u va tajribalarida halol bo'lsagina, samimiy va chuqur mazmunli asarlar yarata oladi.

Haqiqatan, shoironing o'zgacha yozish uslubiga egaligi o'quvchining e'tiboridan chetda qolmaydi. Shoira ham ijodida shunga urg'u berib ketadi:

Mening ham dunyom bor,

U o'zimga xos.

Birovdan kamtarroq,

Birovdan ustun.

Ba'zan yo'q narsadan

Hafaman bexos

Ba'zan quvonaman

Oddiy bir so'zdan.

Shuni ta'kidlash kerakki, Turdiyeva Kavsar Sheraliyevna mustaqillik yillari bolalar shoirasi sifatida sermahsul ijod qildi. Tasavvur qiling rus maktabni oltin medalga bitirib, oliy ta'lim va aspiranturalarni rus tilida o'zlashtirgan o'zbek qizi o'zligini yo'qotmay, nafaqtgina yo'qotmay, balki o'zimizning qorako'zlar uchun yillar davomida sermahsul ijod qilsa. aslida hayot bu menga berilgan bir imkoniyat deb, davlat xizmatiga butunlay umr bahshida etib, mansab pillapoyalarini bemalol zabt etishi mumkin o'laroq, shoira butunlay teskari yo'lni tutdi va e'tiqodida sodiq qoldi. Ijod, ijod va yana ijod ... Bu tanlov nafaqat jajji o'zbek qalblarini borligini dunyoga tanita oldi, balki uzbek va rus millati ijodkorlari orasida ko'prik vazifasini ham o'tadi. O'ylamizki, bugungu kunda shoira oz mevalarini termoqda. Uning hosili asrlarga tatigulik, o'rganishga arzuguli, muhimi barakali.

Ma'lumki, bolalar uchun she'r yaratish oson ish emas, u alohida yondashuvni talab qiladi. Shoira bu jarayonda o'zidan ikkinchi shaxs obrazida kattalarnikidan boshqacha fikrlashi, his qilishi va bolalarcha tushunishi kerak. Xususan, ularni nima qiziqtirayotganini hisobga olish, oddiy va tushunarli tildan foydalanish, bolalarga xos ijodkor bo'lishi kerak. Axir bolalar kulgili hikoyalar va kulgili qahramonlarni yaxshi ko'rishini bilgan shoira ularni



majburlab darslar qildirish yoki ozodalikni o'rgatishni yoqtirmasliklarini besh qo'lday biladi. Buning o'rniga, mehribonlik, halollik va boshqa qadriyatlarni muloyimlik bilan kiritishga harakat qilib, ularga yaqin va tushunarli bo'lgan narsalar haqida yozishga harakat qilgan. Tabiat, uy hayvonlari, o'yinchoqlar, maktab hangomalari, do'stlar va jaydari tilda yozilgan vatanga muhabbat mavzulari mustaqillik avlodlari tomonidan sevib o'qiladi va yod olinadi. Sababi undagi ritm va qofiya uyg'unligidan foydalanish sa'natidan yuqori saviyada foydalanilgan - bolalar nafaqat o'qilishi, balki ohangda o'qilishi mumkin bo'lgan she'rlarni yaxshi ko'rishini shoira ich-ichidan xis qilib qalam tebratgan. Sevgi bilan yozilgan bu she'rlardagi chinakam g'amxo'rlik va iliqlik alohida e'tirofga ega.

Shoiraning Vatan, Vatanga bo'lgan muhabbat va sadoqat janridagi she'rlari aynisa tahsinga sazovor.

Aytish joizki, so'nggi yillarda dunyo bo'ylab, xususan mustaqil yurtimizda ham bolalar shoirlari, afsuski, barmoq bilan sanoqli. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Turdiyeva Kavsar Sheraliyevna o'zi bir necha ilmiy maqolalarida bu sohani muammolarini yumshoq qilib yoritishga muvaffaq bo'lgan. U o'zbek shoirlaridan Anvar Obidjon ijodiga ko'p bor murojyat qilgan. Shoira ijodiga mansub "Dunyoni saqlar bolalar" kitobini mutolaa qilar ekanmiz, go'yoki undagi voqealar bilan birga yashaymiz, bolalarning sehrli olamiga sayohat qilamiz, ich-ichimizdan samimiy tuyg'ular o'tadi. Misol uchun "Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar", "Kuch birlikda" maqollari ajoyib tarzda yosh kitobxonlarga yetkaziladi:

Ko'zlar bilan, so'zlar bilan

Do'stlar bilan dillashaylik,

Mehr bilan, sog'inch bilan,

Quvonch bilan birlashaylik

Bu birlikni ahillikni

Buza olmas ovoralar.

Vatan bo'ylab quvnab-kuylab,

Hayotni asrar bolalar.



Oxirgi jumlalarga e'tibor bering-a birgina shu so'z zamirida tinchlik so'zining buyuk ma'nosini anglab yetish mumkin. To'plamdagi do'stlikni, tozalikni, halolikni targ'ib etuvchi pozitiv ruhdagi, dangasalik, qizg'anchilik va chaqimchilik mavzularida keltirilgan yomon illatlarni ko'rsatib beruvchi "muallim" sher'lar ham talaygina.

Kirib keldi xurozchamiz

Qu-qu-qu.

Dedi: Bunday

Isqirt yurish uyat-ku!

Yoki bo'lmasa mana bu to'rtlikka e'tibor bering:

Koptokni ham olaver,

Yolg'iz o'zing qolaver

Qizg'anchiq chiq, chiq!

Davramizdan chiq, chiq!

Xulosa

Mana shunday mohirona o'xshatishlar bolakayni "quloq solishga", "gapga kirishga undaydi". Beihtiyor she'r sehdida "Ey beg'ubor bolalik, buncha go'zalsan" deb yuborganini bilmay qoladi kishi. E'tiborlisi bu she'rlar bolalar o'yiniga aylantirilib, yanada qiziqroq, ta'sirliroq chiqishiga moyil qilib ishlangan. Shuningdek, baxtiyor bolaligimiz ko'z oldimizdan o'tadi, gohi kulib, gohi mayus tortib, ba'zi joylarda xo'rsinib yohud jindak yig'lab olamiz. Bir so'z bilan aytganda kitob bolalar dunyosi va ruhiyatini chuqur anglash, ularning ko'ngliga yo'l topa olish hamda she'riy satrlar orqali boy madaniy merosimizni jajji murg'ak qalblarga yetkazish, insoniy fazilatlarini singdirish va kelajakka ishonch uyg'otish kabi muqaddas vazifalarni to'laqonli uddalay olgan degan fikrga kelamiz.

O'z davrining faollaridan bo'lgan olim, mohir pedagog, publisist, dramaturg, kinossenarist va tarjimon bo'lishi bilan birga ajoyib umr yo'ldosh, qattiqqo'l va talabchan ona hamda nabiralarning mehribon buvijonisi xalqimizning taniqli shoirasi Turdiyeva Kavsar Sheraliyevna bu yil o'zining 65 yillik yubileyini nishonlamoqda. Turli davra va kechalarda taniqli olimlar va talabalar tomonidan shoira sha'niga iliq fikrlar bildirilib, uning ijodini ilmiy o'rganish yosh avlodlarga to'la qonli yetkazish kun tartibidan tushmasligi,



aksincha yana rivojlantirilishi to'g'risida ta'kidlashmoqda. Albatta, bunday fikrlar zamonasining ilg'orlaridan hisoblangan Turdiyeva Kavsar Sheraliyevnadek ziyoli o'zbek ayoli uchun o'rnlidir. So'zimiz yakunida biz ham shoiraga uzoq umr, baxt-sodat tilab qolamiz.

Adabiyotlar

1. K. Turdiyeva. Dunyoni saqlar bolalar: she'rlar. Toshkent, "Bekinmashoch-plyus", 2012.-384 b.
2. K. Турдиева. Соғинчлар сочилган бекатда: (шеърлар). Тошкент. Yurist-media, 2007. – 250 б.
4. M am asoli Jum aboyev. Bolalar adabiyoti va folklor. Darslik. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. 216 b.
5. K. Турдиева. XX асрнинг 60-80- йилларида ўзбек болалар шеърлятида маънавият масалалари. Монография. ТПТИ нашриёти, 2021 й.
6. https://www.ziyouz.com/books/uzbek_zamonaviy_sheriyati/Kavsar%20Turdiyeva.%20Saylanma.pdf (02.12.2023 й.)
7. <https://arboblar.uz/ru/people/turdieva-kavsar-sheralievna> (02.12.2023 й.)
8. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/anvar-obidjon-1947> (02.12.2023 й.)